

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021 yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobil o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 8 008 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 566 taga yoki 47,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 7 479 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 396 taga yoki 47,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 930 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59 taga yoki 6,8 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 22 383 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 740 taga yoki 26,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 307 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 705 taga yoki 28,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-aprel oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 903 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 456 taga yoki 31,5 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 625 tani tashkil etib, ulardan 609 tasi yoki 97,4 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 80 taga yoki 15,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)

	2020 y.	2021 y.
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8	4
Sanoat	15	15
Qurilish	2	1
Savdo	5	7
Tashish va saqlash	2	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	-
Axborot va aloqa	-	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-
Boshqa turlar	-	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2021-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

9



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	70-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	314-Sanoat
	38-Qurilish
	96-Savdo
	14-Tashish va saqlash
	18-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	7-Axborot va aloqa
	7-Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	45-Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	609	416	193
Samarqand sh	265	163	102
Kattaqo'rg'on sh	22	16	6
tumanlar:			
Oqdaryo	33	29	4
Bulung'ur	24	10	14
Jomboy	42	35	7
Ishtixon	15	9	6
Kattaqo'rg'on	11	10	1
Qo'shrabot	22	11	11
Narpay	4	3	1
Payariq	16	10	6
Pastdarg'om	29	22	7
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	40	31	9
Nurobod	13	12	1
Urgut	51	42	9
Toyloq	13	9	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 265 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,5 %), Urgut 51 ta (8,4 %), Samarqand 40 ta (6,6 %), eng kamlari esa Narpay 4 ta (0,7 %), Paxtachi 9 ta (1,5 %), hamda Kattaqo'rg'on 18 ta (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

12




2021- yil 1- may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,3 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,4 %), Payariq hamda Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,2 %), Oqdaryo (4,0 %), Bulung'ur (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (3,0 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,1 %), Pastdarg'om (9,6 %), Urgut (8,3 %), Samarqand (7,2 %), Oqdaryo (5,5 %), Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Payariq (4,9 %), Nurobod (4,4 %), Jomboy (4,3 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur (3,9 %), Paxtachi hamda Narpay (3,4 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,0 %), va Qo'shrabot (2,2 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,7 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (7,0%), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,4 %), Oqdaryo (3,8 %), Jomboy hamda Bulung'ur (3,7 %), Ishtixon hamda Nurobod (3,6 %), Toyloq (3,1 %), Paxtachi (2,2 %), Qo'shrabot (2,1 %), hamda Narpay (1,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)


15



2021- yilning yanvar-aprel oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (17,7 %), Pastdarg'om (13,0 %), Samarqand tumani (12,0 %), Urgut (8,8 %), Payariq (7,7 %), Oqdaryo (7,3 %), Ishtixon (5,7 %), Jomboy (5,5 %), Toyloq (5,1 %), Bulung'ur (4,7 %), Narpay (4,6 %), Kattaqo'rg'on (4,3 %), Kattaqo'rg'on shahar (1,2 %), Paxtachi (1,1 %), Qo'shrabot (0,9 %) va Nurobod (0,3 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists various statistical topics like "RASMIY STATISTIKA", "Metama'lumotlar", and "Makroko'satikchilar". The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmdag'i kodni kiritning" (Enter registration code). A dropdown menu is open, showing options such as "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the right, there is a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42